

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

BABOJONOV DILMUROD KAMILOVICH

**“ICHAN QAL'A” DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI TARIXI
(1920-2020 yy.)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Babojonov Dilmurod Kamilovich

“Ichan qal’a” davlat muzeyi qo‘riqxonasi tarixi (1920–2020-yu.).....3

Бабожонов Дилмурод Камилевич

История Государственного музея-заповедника «Ичан кала» (1920–2020 гг.).....21

Babojonov Dilmurod Kamilovich

History of the State Museum-Reserve “Ichan kala” (1920–2020).....41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

BABOJONOV DILMUROD KAMILOVICH

**“ICHAN QAL'A” DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI TARIXI
(1920–2020 yy.)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Tar848 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Davletov Sanjarbek Rajabovich,
tarix fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Saribayev Maman Ktaybekovich,
tarix fanlari doktori, professor,

Xudayberganov Komiljon,
tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Qoraqalpog‘iston bo‘limi gumanitar fanlar
ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 Ilmiy kengashning 2023-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: urdu.uz.

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Bosh bino). Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ da tarqatildi.
(2023-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

G.S.Durdiyeva,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi o‘rinbosari, arx.f.d.,

Y.A.Karimov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, dotsent,

U.I.Abdullayev,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix
fanlari doktori, dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tarixshunosligida milliy madaniy meros, xususan muzeylar, ularning paydo bo'lishi, shakllanish jarayonlari, rivojlanishi, noyob moddiy merosni saqlab qolish, kolleksiyalarni yanada boyitish va keng targ'ibot qilish ustuvor yo'nalishlardan biridir. Tarixiy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan muzeylar, ularning taraqqiyot bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlarining tadqiqi ham sohaning rivojini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Hozirgi davrda jahon miqiyosida yirik siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berib, barcha davlatlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda, milliy madaniyatlarni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Dunyoning bir qancha ilmiy tadqiqot muassasalarida muzeylar faoliyati keng miqiyosda tadqiq qilinmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti (IFEAC, Frantsiya), Kembrij Markaziy Osiyo forumi (Buyuk Britaniya), Avstriya Fanlar akademiyasi (Avstriya), Kavkaz va Markaziy Osiyoni tadqiqotlari instituti (Turkiya) kabi ilmiy markazlarda Xiva shahri, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi me'moriy obidalar va muzey eksponatlariga qiziqish yuqori bo'lib, shu mavzuga oid qo'lyozma manbalar o'rganilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda moddiy va ma'naviy merosni saqlashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Tarixiy obidalar ta'mirlanib, muzeylar faoliyati samarali tashkil etilmoqda. Muzey fondlari boyitilib, yangi zamonaviy ekspozitsiyalar tashkil etilmoqda. "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi respublikada o'z o'rniga ega va tarixiy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda muzey-qo'riqxonalar tarixini o'rganish, faoliyatini keng targ'ib qilish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, sayyohlik sohasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-iyulda qabul qilingan "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2020 yil 26 iyundagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyat, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" dasturining ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-iyulda qabul qilingan "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 26-iyundagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi // www.lex.uz

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining tarixi mavzusi uzoq yillar davomida tarixchi, muzeyshunos, san’atshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Muzey faoliyati haqida ommaviy axborot vositalarida ko‘plab chiqishlar qilingan, kitob-albomlar tayyorlangan bo‘lsa-da, ilmiy jihatdan deyarli tadqiq qilinmagan. Tadqiqotchilar asosan muzey-qo‘riqxonadagi tarixiy obidalarni o‘rganishga e’tibor qaratishgan.

Ushbu mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh – sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar bo‘lib, bu asarlarda muzey tarixi o‘sha davr ruhida, o‘z davri mafkurasiga xizmat qilgan holda yoritilgan va tadqiqotda tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganildi.

Ikkinchi guruh – Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar bo‘lib ular bugungi kun tarix fanining yangi metodologik tamoyillari asosida yoritilayotgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Uchinchi guruh – xorijiy adabiyotlar hisoblanadi. Xiva shahri me’moriy obidalari va muzey eksponatlariga xorijiy olimlarning qiziqishi doimo yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, mustaqillikdan keyin xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari yanada faollashdi.

To‘rtinchi guruh – umumiy ommabop adabiyotlar bo‘lib, uni turli davrlarda Xiva shahriga tashrif buyurgan sayyohlarning xotiralari, Xorazm, jumladan Xiva shahri bilan bog‘liq tadqiqotlar, davlat arboblarning tashrifi bilan bog‘liq ma’lumotlar tashkil etadi.

Jahon tsivilizatsiyasining rivojiga katta hissasi qo‘shgan vatanimiz tarixi allaqachon jahon olimlarining diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlar, elchilar va xizmat safari bilan kelgan boshqa davlat vakillarining qadimiy va navqiron Xiva shahridan olgan taassurotlari asosida yozilgan esdaliklari, ilmiy va badiiy asarlari o‘sha davrda o‘lka va shahar tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, N.N.Muravev, A.Vamberi, A.L.Kun hamda boshqa olim va sayyohlarni asarlarini ko‘rsatish mumkin².

V.V.Bartold, P.P.Ivanov, Y.G‘.G‘ulomov, M.Yo‘ldoshev va boshqa olimlar O‘zbekiston tarixini o‘rganish jarayonida tarix faniga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shganlar va Xorazm davlati, shaharlari, ayniqsa Xiva shahri haqida o‘zlarining fikrlarini bayon qilganlar³.

Sovet davridagi ayrim tadqiqotlar mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi⁴. Mazkur asarlarda muzeyning shu davrdagi tarixi, faoliyat yuritgan shaxslar, ekspozitsiyalari, noyob eksponatlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu davr vaqtli matbuotida chop etilgan kichik hajmli xabarlar,

² Записки Н.Н. Муравьева Карского. 1819 г. Путешествие в Хиву. Русский архив. – М1887. №9. – 10; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб.:1865; Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. – Известия ИРГО. Т.10. №1. – СПб., 1874. – С.47-58.

³ Бартольд В.В. История Туркестана. История культурной жизни Туркестана. Соч. в 10-и томах. – М.: Восточной литературы. Т. 2. ч 1. 1963. Истории Хорезма в XVI в. Т.3. 1965; Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940; Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. – Т.: Фанб 1941; Гулямов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Т., 1959.

⁴ Билалов Г.М. Хоразм маданият ва маориф тарихидан. – Т., 1969. 100 б.; Мухаммаджанова Г.М. История образования Хорезмского историко-революционного музея. – Хива, 1980; Собиров О. Хоразм вохаси театрлари. – Т.: Ф.Фулом, 1991.

maqolalar ham tadqiqot ishiga keng jalb qilindi⁵. Bu kabi ma'lumotlar shu davr muzey faoliyatini baholashga imkon beradi.

Mustaqillik yillarida muzeylar tarixini o'rganish borasida ham bir qator tadqiqotlar olib borildi. Bu adabiyotlarda Xivada dastlabki muzeyning tashkil etilishiga doir, Xiva shahrining umumiy etnografik qiyofasi, xorijga olib chiqib ketilgan madaniy boyliklar, muzey-qo'riqxonada faoliyat yuritgan shaxslar haqida ma'lumotlar keltirilgan⁶.

Keyingi yillarda Xorazm tarixi va madaniyatiga oid bir qancha dissertatsiyalar tayyorlandi. Jumladan, Y.Rahmonova, M.Matyoqubova, M.Abdullayevlarning tadqiqotlarda muzey-qo'riqxonada faoliyati bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar uchraydi.

Mavzuni tadqiq etishda yubileylar munosabati bilan yaratilgan kitob-albomlar, ilmiy to'plamlar, turli davrlarda nashr etilgan katologlar, yo'l-ko'rsatkichlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega⁷.

Xiva shahri me'morchiligi haqida juda ko'plab kitoblar nashr etilgan bo'lib, ularda muzey faoliyati haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi⁸.

Ayrim adabiyotlar tarix va muzeyshunoslik atamaları va tushunchalariga aniqlik kiritishda yordam berdi⁹.

Qadimiy va navqiron Xiva hamisha xorijiy olimlarni e'tibor markazida bo'lgan. Ayniqsa, keyingi yillarda mavzuga AQSH, Yevropa, Yaponiya, Arab mamlakatlari olimlarining qiziqishlari ortgan¹⁰.

Muzey faoliyati haqida vaqtili matbuotda O.Abdullaev, S.Yusupov, R.Iskandarov, A.Abdurasulov, K.Xudayberganov, D.Babojonov, M.Abdurasulov,

⁵ Кальмиков Л. Помочь Хорезмскому музею в сборе экспонатов // газ. Хорезмская Правда. 1951 г. 10 авг.; Халқ музейи очилиши // “Коммунизмга” газ. 1968 й. 11 янв.; Среда Т.В. Состояние и пополнение фонда Хивинского музей-заповедника. – Хива, 1969. – 6 с.; Муҳаммаджонова Г. Хива тарих музейи – 60 ёшда // “Хоразм хақиқати” газ. 1980 й. 26 апр.

⁶ Маткаримов М.М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч, 1993. 42-б.; Абдурасулов А. Хива (этнографик очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 1997.; Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари / Масъул муҳаррир Д.А.Алимова. Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 353-401.; Махмудов М. Хоразм: тарих, одамлар, воқеалар. – Урганч, 2005. – 173 б.; Юсупов П. Ёш Хиваликлар тарихи. – Урганч: Хоразм, 1999. 32-42 б.

⁷ Хива – очик осмон остидаги музей. – Т., 1982; Хива – очик осмон остидаги музей. – Истамбул, 1994; Хива – минг гумбаз шаҳри. – Т., 1997; Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 302 б. Хива “Ичан – Қалъа” давлат музей – қўриқхонаси жамланмаси каталоги. 1-жилд. Т., 2006; Хива Ичан – Қалъа давлат музей – қўриқхонаси жамланмаси каталоги. 3-жилд. Т., 2006. 91 б.; Гласс Ю.И., Ланда Л.М. Музеи Узбекистана. Путеводитель - справочник. – Т.: Госиздат, 1961. – 182 с.; Булатова В.А., Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хивы. Путеводитель. Т., 1965; Ибрагимов О. Тош ҳовли саройи йўл кўрсаткич. Хива, 1990.12 б.

⁸ Маньковская Л.Ю., Булатова В.А. Памятники зодчесво Хорезма. Т.: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 1978. – 36 с.; Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. – Т., 1978.; Бобожонов Д.К., Абдурасулов М.А.. Фирдавмонанд шаҳар. – Хива, 2008.

⁹ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. — Т.: “Шарқ”, 1998; Давлетов Б., Ибрагимов О. Музейшунослик атамаларининг изоҳли луғати. – Т.: “Адолат”, 2005. 89 б.;

¹⁰ Karim Kamal Helal. The Remaining Islamic Madrasahs of Khiva City in Uzbekistan Republic. Helwan University, Cairo 1441 A.H. / 2020 A.D. – P. 564; Khaliyarov A. Khiva Under the Qungrats (1770-1920): State Formation, Global Trade and Capitalism in 19th-century Central Asia. – The Ohio State University. 2021; McChesney, Robert. 1987. Economic and Social Aspects of Public Architecture of Bukhara in the 1560's and 1570's. Islamic Art 2: 217–241; Sartori, Paolo. 2016b. Seeing Like a Khanate: On Archives, Cultures of Documentation and Nineteenth-Century Khvārazm. Journal of Persianate Studies 9: 228–257.

Z.Meyliyeva, M.Abdullayev va boshqalarning maqolalari e'lon qilingan¹¹. Bu maqolalar tahlili natijasida muzeyning turli davrlardagi faoliyati haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Umuman olganda muzey juda mashhur va u haqda ommabop ma'lumotlar ko'p bo'lsa-da, ilmiy jihatdan yaxlit tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Shu bois tadqiqotda asosan birlamchi manbalar: qo'lyozmalar, arxiv materiallari va xotiralarga murojaat qilindi. Yuzlab manbalar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Xususan, O'zMAning 9, I-2, I-125, R71, R394-jamg'armalari, Xorazm viloyati davlat arxivining 545, 555, 591-jamg'armalari, "Ichan qal'a" davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi arxivi hujjatlari mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. A.Boltayev, S.Yusupov, G.Muhammadjonova, Sh.Xo'jayev, E.Yoqubov, A.Abdurasulov, Z.Toshpo'latova va boshqalarning qo'lyozmalaridan foydalanildi. Muzey-qo'riqxonada uzoq yillar faoliyat yuritgan xodimlardan intervyular olinib, adabiyotlar, qo'lyozma va arxiv ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasining 2018–2020-yillarda amalga oshirilgan I-FA-2019-25-shifrlil "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida smart texnologiyalarini yaratish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasini tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xiva shahrida dastlabki muzeyning tashkil etilish jarayonlarini tadqiq etish;

XX asrning 30–60-yillarida muzey faoliyatini yoritish;

1970–90-yillarda Xorazmda muzey tarixini tadqiq qilish;

"Ichan qal'a" muzey – qo'riqxonasining mustaqillik yillaridagi faoliyatini yoritish;

Ichan qal'a muzey – qo'riqxonasining bo'limlari, fond kolleksiyalari va ularni boyitish masalalarini tahlil qilish;

Mustaqillik yillarida muzey-qo'riqxonaning ekspozitsiyalari faoliyati hamda uning viloyat ijtimoiy- iqtisodiy hayotidagi o'rnini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi fondi kolleksiyalari, muzey bo'limlari va ekspozitsiyalari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini mazkur sohada qabul qilingan huquqiy hujjatlar, qo'lyozma va arxiv ma'lumotlari, sohada qo'llanilgan zamonaviy tadqiqotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik, anketa, suhbat kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

¹¹ Искандаров Р. Музей шаҳар // "Хива тонги" газета. 1998 й. 18 май.; Абдуллаев М. "Дорул хикмат вал маориф" буюк алломаларга бағишланган музей // Мозийдан садо. 2020. – Б. 26.

“Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi tashkil etilguniga qadar, Xiva xonligi va Xorazm xalq respublikalari davrida ham tarixiy obidalarni saqlash, osori-atiqalarni to‘plash amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligi, shu maqsaddagi ishlarga alohida mablag‘larning yo‘naltirilganligi vohada keyinchalik muzeylar faoliyatini shakllanishiga xizmat qilgani tarixiy manbalar asosida isbotlangan.

XX asr boshiga kelib, mahalliy ziyoli qatlam vakillaring faoliyatida madaniy merosni saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilishga e‘tiborning kuchayganligi vohada muzeylar va turli mavzulardagi ekspozitsiyalarni tashkil etish, jamiyatda muzeylarning rolini oshirishga xissa qo‘shgani o‘sha davrda chop qilingan ilmiy-publitsistik maqolalar asosida ochib berilgan.

Sovet davrida muzeylarni sotsialistik qurilish xizmatiga jalb etilishi va “madaniy inqilob” quroliga aylantirilishi oqibatida XX asrning 30-yillariga kelib, muzeylar madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qolganligi, teatrlar sahnalarida eksponatlardan foydalanish va muzey fondlari omborxonalarining tugatilishi muzey kolleksiyalarida yo‘qotishlarga olib kelgani “Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi fondidagi xujjatlar asosida dalillangan.

Mustaqillik yillarida “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyatining tubdan yaxshilanishi, ko‘plab tarixiy-me‘moriy obidalarning ta‘mirlanishi, muzey fondi eksponatlarining boyitilishi va zamonaviy muzeyshunoslik tamoyillari asosida yangi ekspozitsiyalarning tashkil etilishiga e‘tiborning davlat siyosati darajasida kuchayganligi me‘yoriy huquqiy xujjatlar tahlili natijasida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr va XXI asr boshidagi O‘zbekiston tarixini, jumladan Xorazm tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining fondida saqlanayotgan buyumlar, arxiv fondidagi hujjatlar, rasm-tasvirlarga muhrlangan tarixiy voqealar, muzeylar ekspozitsiyalaridagi namoyish qilinayotgan asl nusxa eksponatlar targ‘ibotiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondoshuv va usullarning qo‘llanilganligi, qo‘lyozma hamda arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi, birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotdagi faktik materiallar, ilmiy xulosalardan O‘zbekiston tarixi va muzeyshunoslik fanlaridan dars jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu dissertatsiyaning tadqiqot materiallari O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradigan mutaxassislariga O‘zbekiston tarixiga oid o‘quv qo‘llanma va risolalar tayyorlashda yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.) masalasini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasining “Qadimgi Xorazm tarixi”, “Xorazm kulolchilik tarixi”, “Xorazm tasviriy san’ati”, “Xudaybergan Devanov” va “Ogahiy uy muzeyi” ekspozitsiyalarini boyitishda, bir qator o‘quv qo‘llanmalar

va risolalar tayyorlashda, ekskursion va gid tarjimonlar uchun ma'lumotnomalar tayyorlashda, foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021-yil 5-avgustdagi 03-17-02G'4727-son ma'lumotnomasi). Natijada Xiva shahri bo'ylab ekskursion o'tkazuvchi gid-ekskursionlar, ekskursion yetakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar, muzey ilmiy xodimlari ish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

“Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanayotgan eksponatlarning ilmiy ma'lumotnoma apparatlarini shakllantirish xususan ilmiy pasportlarini tayyorlashda, noyob fotolarni tadqiq qilishda va sharhlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros departamentining 2021-yil 23-iyuldagi 01-02-6MG'1313-son ma'lumotnomasi). Natijada olingan ma'lumotlar Xorazm viloyatining turistik salohiyatini oshirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot ishidagi “Ichan qal'a” arxitektura yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash jaryonlari borasidagi ilmiy ma'lumotlardan Xivada muzey tashkil etilganligining 100 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan “Tarixiy savol” ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 1-iyuldagi 02-40-1108-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvda Xiva xonligi Qo'ng'irotlar davriga oid madaniy yodgorliklar, tarixiy eksponatlarning tarixiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

Qadimgi Xorazm va zardushtiylilik dini tarixiga oid eksponatlarning ilmiy pasportlarini yozishda, shuningdek, fondida saqlanayotgan qo'lyozma manbalar asosida ilmiy burchaklarni tashkil etishda va Avesto kitobining ekspozitsiyalarda aks ettirilishi bo'yicha tadqiqot natijalaridan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi Xorazm viloyati bo'limida yangi ko'rgazmalar tashkil qilish va sayyohlarga axborot berishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 18.08.2021 dagi 01-16-son ma'lumotnomasi). Natijada “Avesto” muzeyi faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 1 ta xalqaro: “Xorazm – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari” (Urganch, 2020) va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarda (“O'zbekiston hududida kechgan etnomadaniy munosabatlar va uning davlatchilikning shakllanishidagi o'rni” Urganch, 2012), “O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o'rni” mavzusidagi xalqaro konferentsiya (Shahrisabz, 2021), “O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi” ilmiy konferentsiyasi (Toshkent, 2022) aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 7 ta monografiya va albomlar, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 3 ta xorijiy impakt faktorli jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Umumiy hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, uslubalari, yondashuvlari aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, materialning o‘rganilganlik darajasi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va ish tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xiva shahrida ilk muzeyning tashkil etilishi”** deb nomlangan bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, unda Xorazmda noyob buyumlarning saqlanishi, Rossiya imperiyasi tomonidan tarixiy-madaniy boyliklarni talanishi, ko‘rgazmalar faoliyati, Xivada ilk muzeyga asos solinishi, Xiva xonlari tarixi muzeyi va Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi faoliyati tadqiq etilgan. 1920–1969-yillarda Xorazm viloyatida muzey ishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Bobning birinchi paragrafi **“Xiva muzeyiga asos solinishi”**ga bag‘ishlangan. Unda Xorazmda o‘rta asrlarda, xususan Xiva xonligi davrida qimmatbaho tarixiy-madaniy buyumlarga munosabat, ularni saqlash masalalari bayon etilgan. O‘rta Osiyoda ham xonlarning saroylarida, xazinaxonalarida nodir buyumlar to‘plangan. Kutubxonalar ham ko‘p bo‘lib, u erda noyob qo‘lyozmalar saqlangan¹².

Hukmdorlar saroylarini va ibodatxonalarni o‘z davrining moddiy madaniyat namunalarini to‘playdigan, saqlaydigan va kelgusi avlodga yetkazish uchun xizmat qiladigan dargohga aylantirganlar. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z davrida (1645–1663) antiqa buyumlarni to‘plagan va aholiga namoyish qilgan. Xalq bu joyni “Ajoyibxona” deb atagan¹³.

Urf-odat va qoidalardan kelib chiqib, Xorazm hukmdorlarining xazinasini va boyliklari saroyning to‘rtta joyida saqlangan: 1. Xonning xos xonasida – olmos, gavhar qadalgan toji, qimmatbaho taqinchoqlar, noyob qurol-yarog‘lar; 2. Zarbxonada – xonlikda chiqarilgan tilla, kumush va mis pullar, pul bosadigan qoliplar; 3. Ko‘rinishxonada – yo‘lakdagi ayvonda xonga sovg‘a qilingan nodir qurol-yarog‘lar, nodir qo‘lyozma kitoblar kutubxonada, ichki xazinada turli davrlarda zarb qilingan tilla, kumush pullar, boshqa davlatlarda chiqarilgan nodir tangalar, xon muhrlari, yombilar, yorliqlar, farmonlar, chet ellar bilan olib borilgan yozishma maktublar; 4. Anjomxonada – turli sarpo va to‘nlar, mukofot, hadyalar uchun maxsus yasalgan qimmatbaho qurol-yarog‘lar va boshqa buyumlar.

O‘rta Osiyoni bosib olish jarayonida (1853–1881) sharqshunos olimlar, qadimgi osori-atiqalarga o‘ch harbiylar tomonidan turli hujjat, qo‘lyozma va boshqa osori-atiqalar to‘plangan. Xivaga 1873-yilgi yurishda qatnashgan sharqshunos A.L.Kunga (1840–1888) Peterburg kutubxonasi va muzeylari uchun ilmiy ahamiyatga molik hamma narsalarni sinchiklab tekshirish hamda to‘plash

¹² Bu haqda qarang: Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. - Т.: Фан, 1965; Нурджанов К. Историк, этнограф, филолог. К 150-летию А.Л.Куна // "ХП", 1990; “Туркестанский сборник”, 1873, т. 82; “Туркестанские ведомости”, 1888, 22 ноября; Махмудов М. Хоразм: тарих, одамлар, воқеалар. — Урганч, 2005. — 173–бет.). “Туркестанские ведомости”, 1873, - № 50. Валидов А. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 22 (1913-14), 1915. – С. 303-320; Его же. О собраниях рукописей в Бухарском ханстве. Отчёт о командировке // ЗВОРАО, 23 (1915), 1916. – С. 245-262.

¹³ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти. Тарих фанлари номз. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. – Тошкент, 2009, – Б. 17.

topshirildi. Natijada xon kutubxonasidan 300 ga yaqin qo‘lyozma kitoblar musodara qilindi. Xiva xonlarining tanga pul zarb qiladigan 200 nusxa qolipi, bir qancha muhr, xonlikning 1811-yilda Muhammad Rahimxon I (1806–1825-yy) davrida ishlangan taxti, 172 nusxa mo‘g‘ullar davri tangalari, qo‘ng‘irotlar sulolasiga oid tangalardan 3 nusxadan, ko‘plab etnografik buyumlarni to‘plab imperiya poytaxtiga jo‘natilgan¹⁴.

Xazinadagi sandiqlarning aksariyati bo‘sh bo‘lib, faqat bittasining ichi to‘la tanga edi. Ular orasida 20 ta tilla va 5 ta kumush muhrlar, temuriylar davriga mansub 172 ta va Xiva xonlari zarb qildirgan ko‘plab oltin tangalar, qo‘shotar miltiq, to‘pponcha, oltin va zumrad bilan bezalgan qilich, xanjar, sovut, dubulg‘alar, tanga zarb qilinadigan 200 ta qoliplar bor edi¹⁵.

Dastlab ochiqchasiga talangan madaniy boyliklar vaqt o‘tishi bilan ko‘rgazmalar tashkil etish shakliga o‘tadi. Sankt-Peterburg, Moskva shaharlarida tashkil etiladigan ko‘rgazmalarga eng yaxshi noyob buyumlar tanlab olingan va hozirda Rossiya muzeylarini ko‘rki bo‘lib turibdi. Xiva xonligidan ko‘rgazma uchun buyumlar to‘plashda Amudaryo bo‘lim boshlig‘i faol bo‘lgan.

1920-yilda Xivada xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etiladi. XXSR faoliyatining dastlabki davridan madaniy taraqqiyotga alohida e‘tibor qaratadi. Jumladan, Yangi tuzilgan Xiva maorif madaniyat nozirligi 17 aprelda Xivada muzey va ko‘rgazma ochish haqida buyruq chiqaradi. Unda muzey va ko‘rgazma 1920-yil 26-aprelda ochilishi, ko‘rgazma uchun zarur buyumlarni qisqa muddatlarda hududlardan yig‘ib, kamida 2 kun oldin Xivaga yetkazishlari kerakligi, olingan buyum egasiga xohlagan paytda qaytarib olishi mumkinligi haqida xat yozib berish zarurligi qayd qilinadi. Muzeyni tashkil etilishiga Maorif noziri Mulla Bekchon Rahmonov boshchilik qiladi. “1920-yil 2-aprelda Bekjon Rahmon rahbarligida Xiva shahrining Toshhovli saroyida Xalq muzeyi tashkil etiladi. 1920-yil 26-aprel kuni XRR Muvaqqat hukumati tomonidan mazkur muzeyning tantanali ochilish marosimi o‘tkazilib, uning birinchi direktori etib Mulla Bekjon Rahmonov tayinlandi¹⁶”

Birinchi bobning “**Xiva xonlari tarixi muzeyi**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur muzeyning faoliyati, XX asr ikkinchi choragida muzey ishi, uning o‘ziga xos jihatlari, Xiva xonlari muzeyining eksponatlari va muzeyning boshqa sohalar, jumladan teatrni rivojidadagi ahamiyati batafsil tadqiq qilinadi. Rossiyada 1918–1923-yillari 150 dan ortiq o‘lkashunoslik muzeylari yaratilgan bo‘lsa¹⁷, Turkistonda 4 ta, jumladan San‘at muzeyi (Toshkent), Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyi, Xiva va Buxoro muzeylari tashkil qilindi¹⁸.

Xiva xonlari tarixi muzeyi 1922-yilda Toshhovli saroyining Arzxona qismidagi ikkita xonada xon saroyi ekspozitsiyasi shaklida tashkil qilindi. 1928 yilda muzey fondida 1200 ta eksponat bo‘lgan. Xivadagi tarixiy yodgorliklar

¹⁴ Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Фан, 1966. – С. 114-120.

¹⁵ Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. // Туркестанский сборник. – Т. 83. – С. 187.

¹⁶ Маткаримов М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди. – Урганч, 1993. – Б. 42; ЎзМА. Р-71-жам., 1- рўйхат 1-иш, 4-варак; Ирзаев Б., Раҳмонова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – Т., 2019. – Б. 52.

¹⁷ Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – Б. 76.

¹⁸ О‘зМА, Р-394-жам., 1-ро‘ухат, 49-у.ж., 3-варақ.

dastlab “Sredazkomstaris”, keyin “Uzkomstaris” tomonidan muhofaza qilingan va ta’mirlangan. Muzey faoliyatini rivojlantirishda Polvonniyoz hoji Yusupov, Xudoybergan Devonov, Hasanmurod qori Laffasiy va boshqalar munosib hissa qo’shganlar. Muzeylar madaniyat, maorif sohalarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Xususan, Xiva xonlari tarixi muzeyi Xorazm teatrining rivojida ham munosib hissa qo’shgan. Muzeylar madaniyat, maorif va ommaning, ayniqsa uzoq hududlarda faolligini oshirishga xizmat qilishda davom etdi.

Xorazm viloyat statistika bo‘limiga topshirilgan hisobotlarda ham muzey faoliyati haqida muhim ma’lumotlar uchraydi: 1952-yilda muzeyda jami 6773 ta eksponat mavjud bo‘lib, ekspozitsiyalarda 1105 tasi namoyish qilingan, muzey yil davomida 220 kun faoliyat ko‘rsatgan, 1181 soat ekskursiya o‘tkazilgan, 12378 ta tomoshabin muzeyga tashrif buyurgan, 9 ta ko‘rgazma tashkil qilingan, muzey xodimlari tomonidan joylarda 17 ta ma’ruzalar o‘qildi. Hukumat tomonidan muzey ishini rivojlantirish uchun 248 ming 900 rubl ajratilgan¹⁹.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “**Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi**” deb nomlangan. Unda “Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi” Nurullaboy saroyining bir qismida 1924-yilda tashkil qilingani, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1934-yil 3-fevraldagi qarori bilan sobiq Asfandiyorxon saroyi ushbu muzey ixtiyoriga berilgani va muzeyning 1969-yilgacha bo‘lgan faoliyati arxiv materiallari tahlili asosida tadqiq qilingan.

Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi XX asrning 30-yillariga kelib, madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qoldi²⁰. Bu erda 1939-yilning mart oyida Tarix, sotsialistik qurilish va Tabiatshunoslik bo‘limlari ish boshladi. Shu yili Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi ekspozitsiyasini 36000 ga yaqin kishi tomosha qilib, ularga 195 ta ekskursiya xizmati ko‘rsatilgan²¹. Muзей rivojida S.Jumaniyozov, J.Boboniyozov, A.Boltayev, J.Mahmudov, A.Yusupov, L.Kalmikov, A.Islomov, A.Ismagilov, T.V.Sereda va boshqalar munosib hissa qo’shganlar. 1940-yilda muzeyning asosiy fondi 1774 eksponatdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1953-yilda eksponatlar 15000 taga etgan.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida muzey jamoasi aholi o‘rtasida ommaviy-siyosiy, madaniy oqartuv ishlarni rivojlantirib korxonalar va tashkilotlarda, ishlab chiqarish muassasalarida, zavodlarda, jamoat joylarida tushuntirish ishlarini olib borganlar. Ikkinchi Jahon urushi yillarida barcha muzeylar va muzey ishi ham g‘alabaga erishish maqsadlariga yo‘naltirildi. Biroq ba’zi muzeylarning nodir fondi, zargarlik mahsulotlari, numizmatik kolleksiyalari Mudofaa fondiga olindi. 1950–1960-yillarning boshigacha bo‘lgan qisqa davrda ijtimoiy hayot va madaniy jarayonlar iziga tushib, muzey ishlari oldingi davrlarga qaraganda sezilarli rivojlandi.

Urushdan keyingi yillarda muzeylar oldida turgan asosiy vazifalar tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash, tiklash va saqlashga qaratildi. Bu holat bir tomondan

¹⁹ XVDA, 545-jam. 3-ro‘yxat, 1-y.j. G‘ Muzeyning 1952 yil uchun yillik hisoboti. 1953 y. 7 yanv.

²⁰ Batafsil qarang: Собиров О. Хоразм воҳаси театрлари. – Т.: Ф.Ғулом нашрети, 1991.

²¹ ЎзМА, 394-жам., 3-рўйхат № 84-йиғма жилд, 9-14 варак. /В Средаскомстарис. Доклад №1 Уполномоченного Средаскомстариса в Хорезме Л.Н.Соколова, 8-мая 1928 г. Ф-394, офисъ. 3, д. №84. ст 9-14/

muzei xodimlarining faolligini cheklasa, ikkinchi tomondan malakasiz mutaxassislariga yangi ko'rgazmalar tashkil etishda qo'l keldi. Urush natijasida yetkazilgan zarar va urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar davrini yoritish va shu davrga oid eksponatlar bilan to'ldirish qiyin kechdi. Shu yillarda muzei xodimlari soni, ularning maoshi keskin qisqartirildi. Muzei osori-atiqalarini saqlash xonalarining og'ir holati, yetarlicha nazorat va hisobning bo'lmasligi qimmatli buyumlarning yo'qolishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xiva “Ichan-qal'a” davlat tarixiy-me'moriy muzei qo'riqxonasi faoliyati”** deb nomlanib, uchta paragrafdan iborat.

“Xiva “Ichan-qal'a” davlat tarixiy-me'moriy muzei-qo'riqxonasi tashkil topishi va uning rivoji” deb nomlangan birinchi paragrafda muzei-qo'riqxonasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari – muzei kolleksiyalarining to'planishi, ekspozitsiyalarning tashkil etilishi va faoliyati, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va maqsadli foydalanish, aholiga targ'ibot ishlari olib borish masalalari batafsil tahlil qilingan.

O'zbekiston SSR Vazirlar kengashining 1969-yil 21-iyuldagi 343-sonli qaroriga muvofiq Xiva “Ichan-qal'a” davlat tarixiy-me'moriy muzei-qo'riqxonasi tashkil qilingan²². Muzei qo'riqxonaning tashkil qilinishi va rivojlanishiga Davlat mukofoti laureati, xalq rassomi Abdulla Boltayev, adib va dramaturg Yunus Yusupov – Ayyomiy, jurnalistlar uyushmasi a'zolari Madamin Yoqubov, Anvar Ismagilov, Y.Ro'zmetov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari T.V.Sereda, Sobirjon Yusupovlar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

Xiva “Ichan-qal'a” davlat tarixiy-me'moriy muzei-qo'riqxonasi tashkil etilgan paytda uning tarkibida quyidagi bo'limlar faoliyat ko'rsatdi: Sovet davri bo'limi (1920–1970-yy) – 7 ta muzei zalidan tashkil topgan; Tarix davri bo'limi (Ibtidoiy jamoa tuzumi davridan – Xiva xonligi tugaguncha – 1920-yil 2-fevral) – 2 ta muzei zali va 2 ta intererdan iborat. Tabiat bo'limi – eski masjid (Oq masjid) binosida joylashgan va ikkita diaramadan iborat.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, sayyohlar soni yildan-yilga oshib borgan, sayyohlik mavsumiy ekanligini hisobga olsak, muzei-qo'riqxonasi bir kunda 10 ming kishiga xizmat ko'rsatdi. Muzei-qo'riqxonaga 1970-yilda – 200 ming nafar; 1971-yil – 232 ming nafar; 1972-yilda – 237 ming 951 nafar; 1973-yilda – 238 ming 125 nafar, jumladan, 5357 nafar xorijiy sayyoh; 1974-yilda – 289 ming 9 nafar, jumladan 7 ming 3 nafar xorijiy sayyoh va 1975-yilda – 382 ming nafar, jumladan, 8900 nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan²³.

Muzei-qo'riqxonaga tashrif buyuradigan mahalliy sayyohlar tarkibini asosan maktab o'quvchilari (45 %), talabalar (20 %), kolxozchilar (20 %), shuningdek, ishchilar (10 %) va xizmatchilar (5 %) tashkil etdi. Yosh jihatidan 7–17 yosh – 45 %, 17–30 yosh – 35 %, 30–55 yosh – 12 % va 55 yoshdan yuqori 8 %.

Bu davrda muzei-qo'riqxonasi faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud bo'lsa-da, OAVlarida yoritilmagan, yig'ilishlarda deyarli

²² IQDMQA, №07, 162-varaq.

²³ IQDMQA, №7, 127-229-varaq.

ko'tarilmadi. Sovet davriga xos bo'lgan partiya va kommunizmni maqtash, barcha yutuqlarni tuzum bilan bog'lash, kamchiliklarni ko'rsatmaslik, yutuqlarni bo'rttirib ko'rsatish avj oldi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Xiva “Ichan-qal’a” davlat tarixiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasi fondining qayta shakllanishi va kolleksiyalari”** deb nomlangan.

Muzeyshunoslikda fond ishlari birlamchi ahamiyatga ega. Xiva muzeyi 1920-yilda tashkil etilgan, fond shu davrdan shakllana boshlagan bo'lsa-da, uni to'laqonli fondga aylanishi, fondni yuritish ishlari 1970–90-yillarda amalga oshirildi. Muzey-qo‘riqxonaga tashkil etilguncha, muzey fondi Tosh hovli saroyining haram qismida joylashgan bo'lib, fondning bu davrlarga oid inventar kitoblari saqlanmagan. Faqatgina 1943-yildagi topografik ro'yxat saqlanib qolgan. “Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi” yagona fondi inventar kitoblari 1966-yildan ro'yxatga olinib, shu kungacha amalda yuritilmoqda.

1970-yilgacha bo'lgan davrda fond ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani bois muzeyga sovg'a qilingan, sotib olingan ko'pgina muzey eksponatlari turli yo'llar bilan muzey fondidan chiqib ketdi.

Xiva “Ichan-qal’a” davlat tarixiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasining 1977-yildagi muzey fondi Noyob kitob va hujjatlar (2607 ta), Foto-negativlar (2 mingdan ziyod), Qurol-aslahalar, Arxeologik topilmalar, Numizmatika (13 ming), Esdalik medallari va ko'krak nishonlari, Kulolchilik va koshinpazlik, Mis o'ymakorligi, Muhrlar, Yog'och o'ymakorligi buyumlari, Marmar o'ymakorligi buyumlari, Zargarlik, Chinni buyumlar, Gilamlar, Cholg'u asboblari, To'quvchilik buyumlari va Liboslar to'plamlaridan iborat edi. Fondga ayniqsa, amaliy san'atning zargarlik, kandakorlik buyumlari, vaqf hujjatlari noyob hisoblangan.

1978-yilda muzey fondida 18053 ta eksponat mavjud bo'lgan bo'lsa, 1979-yilda bu ko'rsatgich 18294 taga ko'paydi. Asosiy fondga 15994 ta, yordamchi fondga 2301 ta eksponat mavjud bo'lib 166 eksponat alohida ahamiyatga ega qimmatbaho metallardan ishlangan yoki qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan va zarur qo'riqlash vositalariga ega seyflarda saqlandi. Muzey ilmiy xodimlari va muzeyning 5 ta xarid qilish komissiyasi orqali 241 ta muzeybop buyum sotib olingan va ilmiy o'rganildi. Ulardan 99 tasi fotografiya, 7 tasi hujjatlar, 12 tasi umumiy ishlab chiqarish, 1 tasi zargarlik, 8 tasi yog'och o'ymakorligi, 15 tasi sovet davriga oid, 5 tasi tosh bosma kitoblar bo'lib, 158 tasi asosiy fondga, 93 tasi yordamchi fondga qabul qilingan²⁴.

YUNESKO qarori 1990-yil 12-dekabrda Xiva shahrining “Ichan-qal’a” qismi bilan jahon madaniy meroslari ro'yxatiga kiritildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi **“Muzey-qo‘riqxonaning bo‘limlari va ekspozitsiyalari faoliyati”** deb nomlangan bo'lib, unda 1970–1990-yillarda muzey-qo‘riqxonaning ekspozitsiyalari faoliyati ochib beriladi.

1970-yildan boshlab yangi ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil qilindi. Bunda asosan uchta yo'nalishda ilmiy xodimlar tayyorlangan va amaliy ishlar olib borilgan: Tarixiy yodgorliklarni saklash va ta'mirlash ishlari; Ilmiy fond va ilmiy

²⁴ IQDMQA, 5-6-b.

ekspozitsiya, ko'rgazma ishlari va ilmiy ommaviy va madaniy oqartuv ishlari. Ilmiy fond va ilmiy ekspozitsiya, ko'rgazma ishlariga asosan Xiva "Ichan-qal'a" davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasiidagi barcha bo'limlar jalb qilingan bo'lib, muzey fondi jamlamalari asosida mavzuli ekspozitsiya rejasi yordamida yangi ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil qilish, ekspozitsiyadagi eksponatlarni fond jamlamalari asosida o'rganish, ilmiy pasport yozish, ommalashtirish, targ'ibot qilish va ekspozitsiyaning mavzuli ekskursiya matnini tayyorlash kirdi.

1970–75-yillarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha muzey-qo'riqxonada ma'lumotnomasida quyidagilar bo'limlar va ekspozitsiyalar qayd qilingan: 1. Tarix davri bo'limi (Tosh hovli saroyining haram qismida); 2. Muzey fondi (Tosh hovli saroyining haram qismida); 3. Sovet davri bo'limi (1920–1970–yy., Nurullaboy saroyidagi Asfandiyorxon qabulxonasida); 4. Tabiat bo'limi (Oq masjid va Abdullaxon madrasasida); 5. Xorazm amaliy san'at bo'limi (Qozikalon madrasasida); 6. Avaz O'tar ekspozitsiyasi (Qutlug' Murod inoq madrasasida); 7. Abu Ali ibn Sino ekspozitsiyasi (Oloqulixon madrasasida); 8. "Xiva shahri tarixi" ekspozitsiyasi (Matpanoboy madrasasida); 9. Yodgorliklarni saqlash bo'limi (Yangi uslub maktabida); 10. Ilmiy ommaviy va madaniy oqartuv bo'limi va ma'muriyat (Yangi uslub maktabida); 11. Yodgorliklarni saqlash ustaxonasi (Ko'hna Ark saroyida)²⁵.

